

ONA TILI DARSLARIDA LUG'AT BILAN ISHLASH

Raimqulova Rayhon Karim qizi

ToshDO TAUNing 3-kurs talabasi

rayhonsirojeva@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada umumta'lim maktablaridagi ona tili darслarida o'rgatilayotgan lug'atlar bilan ishlash bo'yicha ilmiy-metodologik ishlar haqida so'z boradi. Bundan dashqari dars tashkillashtirishda qo'llash uchun bir nechta metodlar tavsiya eriladi.

Kalit so'zlar: lug'atlar, lug'atshunoslik, darslik, toj metodi, qadam baqadam, diktant.

Abstract: This article discusses scientific and methodological work on working with dictionaries taught in native language classes in secondary schools. In addition, several methods are recommended for use in organizing lessons.

Keywords: dictionaries, lexicography, textbook, Taj method, step by step, dictation.

Абстрактный: В статье рассматривается научно-методическая работа по работе со словарями, преподаваемыми на уроках родного языка в общеобразовательных школах. Кроме того, рекомендуется использовать несколько методов при организации уроков.

Ключевые слова: словари, лексикография, учебник, метод Тадж, шаг за шагом, диктант.

Kirish

Ona tili — millatning madaniy merosi, beba ho boyligi va tafakkurining asosiy ko'zgusidir. Har bir insonning nutq madaniyati, fikrlash darajasi va o'zligini anglashi avvalo ona tilini chuqur bilishi bilan chambarchas bog'liq. Shu bois, umumta'lim maktablarida ona tili darslari alohida o'rin egallaydi. Bu darslarda o'quvchilar faqat grammatik bilimlargina emas, balki boy lug'at zahirasini o'zlashtirish orqali to'g'ri va ravon nutq tuzishni o'rganadilar. Ayniqsa, lug'at

bilan ishslash, so‘zlarning ma’nosini anglash, ularni kontekstdan tushunish va to‘g‘ri ishlata bilish ko‘nikmalarini shakllantirish juda muhim. Ona tili darslarida lug‘at bilan ishslashning asosiy maqsadi — o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish, ularni mustaqil fikrlashga va o‘z fikrini aniq, lo‘nda, mazmunli ifoda eta olishga o‘rgatishdir. Har bir o‘quvchi maktab davrida minglab yangi so‘zlar bilan tanishadi. Ammo bu so‘zlarni faol lug‘atga kiritish, ya’ni amalda qo‘llay olish faqatgina tizimli mashqlar, lug‘at bilan doimiy ishslash orqaligina ro‘y beradi. Lug‘at bilan ishslash bo‘yicha bir qator olimlarimiz izlanishlar qilishda va hali-hanuz davom etmoqda.

“Lug‘at va lug‘atshunoslik”, “Lug‘at turlari va ulardan foydalanish” mavzusi ta’limida o‘quvchilarimiz inson hayoti lug‘atlarsiz to‘laqonli bo‘lolmasligini bilishlari juda zarur. O‘rtta maktab ona tili ta’limining konseptual asoslarida uning zaruriy vositasi ikkita ekanligi ta’kidlanadi: darslik va lug‘atlar. Zero, o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini va nutqini o‘stirishning zaruriy omillaridan biri – lug‘atlar ustida ishslash. Lug‘atlar o‘quvchilarning ijodiy tafakkuri, mustaqil fikrlash darajasi, ijodiy fikr mahsulini og‘zaki va yozma shakllarda ravon bayon etishga olib keladigan behad qimmatli va boy so‘z zahirasini vujudga keltiradi. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda ta’limning har bir bo‘g‘ini uchun (bog‘chadan tortib, universitetgacha) yuzlab lug‘atlarning maxsus turlari yaratilgani, hatto rus maktablari uchun 30 ga yaqin o‘quv lug‘atlari mavjudligini inobatga olsak, bizning maktab partasida o‘tirgan o‘quvchilarimizga ham o‘quv lug‘atlari qanchalik zarurligi ayon bo‘ladi¹.

Ona tili o‘qitishning asosiy maqsadlaridan biri o‘quvchilarga ona tilidagi so‘zning ma’no va mohoyatini o‘rgatishdan, so‘zni his etishga yo‘llashdan iborat. Bunda so‘z ma’nolarini o‘zlashtirish, uni nutqda to‘g‘ri va o‘rinli qo‘llash malakasining hosil qilinishi alohida o‘rin tutadi. Buning uchun ona tili darslarida lug‘at ustida ishslashga alohida e’tibor beriladi. Lug‘at ustida ishslash ona tili darslaridagi oddiy mashg‘ulot emas. Mazkur jarayonda:

¹ D.N. Yuldasheva .-Buxoro: OOO "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdonashriyoti, 2021.- 424 b.

—bolalarning aqliy va nutqiy jihatdan rivojlanishi ko‘zda tutiladi;

—dasturda belgilangan ilmiy-nazariy hamda metodik vazifalar bajariladi;

—o‘quvchilarning aqliy, axloqiy-ma’naviy, badiiy-estetik tarbiyasi amalga oshiriladi;

—ularning ona tili zamirida yashiringan sir-u sinoatlar, fayz-u go‘zallikkarni ilg‘ab olishiga imkin beradi. Shuning uchun ham lug‘at ustidagi ish oddiy va tasodifiy mashg‘ulotlar bo‘lib qolmasligi, balki muntazam va qat’iy rejaga tayanadigan, uzoq va oliy maqsadlarga xizmat qiladigan, uzlusiz Sistema tarzida amalga oshishi kerak². Hozirgi kunda amaldagi darsliklarning asosiy qismida lug‘at bilan ishslash topshiriqlari turlicha berilgan va bu orqali o‘quvchi duch keladigan yangi so‘zlar, ma’nosini tushunmaydigan yoki bu so‘zlarga umuman duch kelmagan so‘zlar haqida ko‘proq ma’lumotlarga ega bo‘ladi.

So‘z ma’nolari ustidagi ish murakkab va qiyindir. Bolalarda yangi, ayniqsa, ma’nosi xiraroq so‘zlarga alohida va jiddiy e’tibor qaratish hissini tarbiyalashga erishish osonkechmaydi. Ammo muntazam va barqaror mashqlar sistemasi bu vazifani bajarishni osonlashtiradi. Shunga ko‘ra, doim ham matn ustida ishlaganda yangi so‘zalarga va so‘zlarning yangi ma’nolarda qo‘llanganiga e’tiborni tortish, o‘quvchilatning bu sohadagi ko‘nikma malakalarining shakllanishi va takomillashishiga imkon beradi. Buning uchun amaliyotda qo‘llanadigan ayrim shakl va usullarni eslatish mumkin:

1. Yangi so‘zning ma’nosini izohli lug‘at vositasida oydinlashtirish.
2. Berilgan so‘zning ma’nodoshlarini topish.
3. Matndagi so‘zning ma’nosiga zid b’lgan boshqa so‘zлarni keltirish.
4. So‘z yasalishiga oid tahlilni amalga oshirish.
5. So‘zning kelib chiqishiga oid tahlil bilan shug‘ullanish, ya’ni s’zning etimologiyasini aniqlash.
6. So‘zning o‘z va ko‘chma ma’nolarini, ular orasidagi bog‘lanishlarni aniqlash.

² B.To‘xliyev, M. Shamsiyeva, T. Ziyodova.O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, T.: 2006. 192 b.

7. So‘zning ma’nosini izlash va imkon qadar boshqa tillarga tarjima qilish³.

Shu o‘rinda lug‘at bilan ishslashda bir nechta metodlar bilan tanishamiz. B.To‘xliyev lug‘at diktanti olish orqali o‘quvchilarning bilimlari takomillashishiga misol keltirgan.

Lug‘at diktanti

Uy, to‘y, tosh, chaqmoq, momaqaldiroq, daraxt, majlis, odob, azob, do‘slik, kitob, ishchi, go‘zal, kichik, shirin, bilimli, oq, o‘q, yoz, chop, kel, o‘yla, ishladi, uxladi, suhbatlashdi, so‘zladi.

Diktant yozib bo‘lingach, o‘quvchilar har bir so‘zning lug‘aviy ma’nosini sharhflashlari va uning qaysi so‘z turkumlariga qarashli ekanligini aytishlari lozim bo‘ladi.

1-topshiriq. So‘zlarning lug‘aviy ma’nosini sharhlang, qaysi so‘z turkumiga qarashli ekanligini aniqlang.

Namuna: uy-odamlar yashashi uchun mo‘ljallangan deraza, eshik, tomi bor bino; uy-nima? so‘rog‘iga javob bo‘ladi, ot so‘z turkumiga kiradi.

2-topshiriq. Mazkur so‘zlar bilan so‘z birikmalarini hosil qiling, gaplar tuzing. Kim? Nima? Qanday? Nima qildi? Nima qiladi? so‘roqlariga javob bo‘lgan so‘zlarning tagiga chizing. Ularning qanday so‘z turkumiga qarashli ekanligini aytib bering.

3-topshiriq. Gaplardan ot,sifat, fe'l turkumlariga oid so‘zlarni ajratib guruhlang.

Shu tariqa lug‘at diktanti og‘zaki sharhlansa, o‘quvchilarda:

- mantiqiy tafakkur doirasi kengayadi va rivojlanadi;
- fikr ifodalash ko‘nikmasi shakllanadi va rivojlanadi;
- nutqda so‘z qo‘llash malakasi shakllanadi;
- so‘z turkumlari yuzasidan egallagan bilimlar aniqlanadi, umumlashtiriladi,

³ B.To‘xliyev, M. Shamsiyeva, T. Ziyodova.O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg’armasi nashriyoti, T.: 2006. 192 b.

mustahkamlanadi⁴.

"TOJ metodi" o'yini

Bu metodda o'quvchi boshiga mavzuga oid yangi so'zlar yozilgan toj kiydiriladi.

Atamaga qarab o'quvchilar navbatma-navbat izoh bera boshlaydi.

1ta izoh bilan o'quvchi topsa 5 ball, 2ta izoh bilan topsa 4 ball, 3ta izoh bilan topsa 3 ball qo'yiladi. 1ta atamaga 1ta o'quvchi chiqadi.

Bu metod o'quvchini fanga nisbatan qiziqishini oshirib yakkama-yakka harakat qilishga undaydi.

"QADAM BA QADAM" metodi

Bu metod asosan ma'lumotlar almashinushi bo'lib, 2ta o'quvchi chiqadi.

Sinf xonasining oxiriga eltib qo'yiladi. Har 1ta mavzu doirasida yangi so'z aytgan o'quvchi 1ta qadam tashlayveradi.

Ma'lumot faqat o'tgan mavzuga yoki yangi mavzuga tegishli bo'lishi kerak.

Ma'lumot takrorlansa yoki aytolmasa qadam tashlolmaydi.

Kim birinchi ma'lumot aytib finish chizig'iga yetib borsa, o'sha o'quvchi g'olib hisoblanadi.

Bu metod ham har bir o'quvchini o'zi uchun o'zi harakat qilishga undaydi.

Xulosa qilib aytganda, metodlar judayam ko'p, faqat ularidan o'rinli foydalanib, o'quvchiga mavzuni tushuntirish davomida barcha imkoniyatlar o'rinli foydalanilsa yoki mavzuga oid qiziqarli voqeа aytib ham o'quvchini o'z faningizga qiziqtirishingiz mumkin. Shu bilan birga, o'quvchilar o'rganishi kerak bo'lgan lug'atlar yaratilishi zarur. Vaholanki, o'quvchilar uchun zarur lug'atlar yaratilmas ekan, ijodiy tafakkurni rivojlantirish mumkin emas, og'zaki va yozma nutqni o'stirish vositasi bo'lgan joriy darsliklar o'z vazifasini to'la bajara olmaydi. Bu o'rta ta'lim bo'g'ini uchun mavzuviy o'quv lug'atlarini yaratish tamoyillarini ishlab chiqish va tuzishni taqozo qiladi.

⁴ B.To'xliyev, M. Shamsiyeva, T. Ziyodova.O'zbek tili o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, T.: 2006. 192 b.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. D.N. Yuldasheva .-Buxoro: OOO "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdonashriyoti, 2021.- 424 b.
2. B.To'xliyev, M. Shamsiyeva, T. Ziyodova.O'zbek tili o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, T.: 2006. 192 b.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. 1 jild Madvaliyev A. Tahriri ostida-T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006.. 624-6.
4. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik- Toshkent. Fan, 2007. – B. 255.